



Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti



TASHENEV
UNIVERSITY



“Alisher Navoiy va XXI asr”

10-ULUSLARARO KONFERANSI

Toshkent-Shimkent, 2025-yil 6-fevral

“Әлішер Науаи және XXI ғасыр”


10- ХАЛЫҚАРАЛЫҚ КОНФЕРЕНЦИЯ

Ташкент-Шымкент, 6 ақпан 2025 жыл

“Alisher Navo'i and the 21st century”

10th INTERNATIONAL CONFERENCE

Tashkent-Shymkent, February 6, 2025



**Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
Qozog'iston Respublikasi Jumabek
Tashenev nomli universitet**

«ALISHER NAVOIY VA XXI ASR»

**mavzusidagi 10-uluslararo konferansi
materiallari**

2025-yil 6-fevral

Toshkent – Chimkent – 2025

UO'K: 821.161.1=512.133

KBK: 83.3 (50')

A 51

Mas'ul muharrirlar:

Shuhrat SIROJIDDINOV,

filologiya fanlari doktori, akademik
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti rektori

Kanat BAYBOLOV,

Jumabek Axmetuli Tashenev nomli universitet rektori,
texnika fanlari doktori, professor

Tahrir hay'ati:

Boqijon To'xliyev (O'zbekiston), Nurboy Jabborov (O'zbekiston), Parida Bayneeva (Qozog'iston), Kemal Yavuz Ataman (Turkiya), Yashar Qosim (Ozarbayjon), Islam Jemeney (Qozog'iston), Farhod Rahimiy (Eron), Sholpan Arzimbetova (Qozog'iston), Karomat Mullaxo'jayeva (O'zbekiston), Janna Botabaeva (Qozog'iston), Baxtiyor Fayzullayev (Tojikiston), Dilnavoz Yusupova (O'zbekiston), Nozliya Normurodova (O'zbekiston), Shahlo Naraliyeva (Qozog'iston), Ilyos Ismoilov (O'zbekiston), Azizullah Aral (Afg'oniston), Orzigul Hamroyeva (O'zbekiston), Ozoda Tojiboyeva (O'zbekiston)

Ushbu to'plamda "Alisher Navoiy va XXI asr" mavzusidagi 10-uluslararo konferansi materiallari jamlangan. To'plamda Alisher Navoiy adabiy-ilmiy merosining mumtoz adabiyotimizdagi o'rni va bugungi kun uchun ahamiyati, shuningdek, shoir ijodiga bog'liq holda matnshunoslik va tilshunoslik muammolariga doir ilmiy maqolalar o'rin olgan. Navoiyshunoslikning bugungi holati va istiqboli borasida muayyan tasavvur berishi uning ahamiyatini belgilaydigan omillardan biridir. Kitob filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistrantlar va bakalavr talabalari hamda keng o'quvchilar ommasiga mo'ljallangan.

Mualliflar qarashi va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

**Әлішер Науаи атындағы Ташкент
мемлекеттік өзбек тілі мен әдебиеті университеті**

**Қазақстан Республикасы Жұмабек
Тәшенев атындағы университет**

«ӘЛІШЕР НАУАИ ЖӘНЕ XXI ҒАСЫР»

**тақырыбындағы 10-халықаралық
конференция материалдары**

2025 жыл 6 ақпан

Ташкент – Шымкент – 2025

ALISHER NAVOIY TOSHBOSMA DEVONLARIDAGI AYRIM G'AZALLAR MATNINING QO'LYOZMA NUSXALAR BILAN QIYOSI

Dilnoza Rustamova Ahmad qizi
O'zR FA Davlat adabiyot muzeyi lektori,
dilnozashahriyor@gmail.com
10.52773/tsuull.conf.navoiy.2025/KUOH1365

Annotatsiya. Maqolada Navoiy toshbosma devonlaridagi ba'zi g'azallar mo'tabar qo'lyozma nusxalar matni bilan o'zaro qiyosiy o'rganilgan. Toshbosma devonlardagi matniy farqlanishlarning sabablari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, qo'lyozma, toshbosma devon, kotib, bayt.

COMPARISON OF THE TEXTS OF SOME GAZELLES IN THE LITHOGRAPHY BOOKS OF ALISHER NAVAIY WITH MANUSCRIPTS

Abstract. This article compares select ghazals from the lithographic divans of Alisher Navoi with the text of authoritative manuscripts. It identifies and analyzes the textual discrepancies between the two sources, providing an examination of the factors contributing to these differences. The study aims to offer insights into the variations and their implications for the accurate representation of Navoi's works.

Keywords: Alisher Navoi, manuscript, lithographic divan, scribe, verse.

Navoiy lirik asarlarining sahih matnini yaratish qo'lyozma, toshbosma manbalar va joriy nashrlarni kompleks tarzda tekshirishni taqozo etadi. Bunda shoir yashagan davr hamda o'rtadagi besh yuz yillik masofa ijodkor adabiy merosining qay darajada o'zgarishlarga uchragani, asl matn qanchalik saqlanib qolgani yoxud uzoqlashilganiga oid ma'lumotlar manbalarni qiyoslash orqali yuzaga chiqadi. Zotan, akademik D.Lixachev "...har bir asar muallifning boshqa asarlari bilan bog'liq holda, to'plamlar, davriy nashrlar, arxivlarning bir qismi, o'z davri adabiyoti bilan o'zaro aloqada bo'lishini yozar ekan, izolyatsiya qanchalik kam bo'lsa, asar matnining tarixini tiklashga shunchalik imkoniyat bo'ladi", deb hisoblaydi [Лихачев Д, 1964:61].

Toshbosma devonlardagi she'rlarning matnlarini noyob qo'lyozma nusxalar bilan solishtirish natijasida she'rning ayrim qismlari – bayt yoki bandlarni o'zgartirgan farqlanishlarini ko'rsatish mumkin:

Mumtoz matnlarda bir harf o'zgarishi ham so'zning o'zgacha ma'no ifodasini yoxud bayt, band ma'nosini o'zgartirib yuborishi mumkin. Navoiyning lirik asarlari bayt yoki band tarzida mustaqil ma'no ifodalasa-da, ularning bir-birini taqozo qilishi yaxlit mantiqiy tizimni hosil qiladi. Shunday qilib, bir harf, bir so'zning o'zgarishi asar g'oyasiga ta'sir etishigacha olib boradi.

"Sanga" radifli g'azalda bir so'z o'rnida boshqasi qo'llanilishi oqibatida bayt ma'nosi yo'nalishi o'zgargan holatlar mavjud. To'rtinchi bayt №872, №306, №771, №912, №944, №22, №19, №18, №219, №220-devonlarda bu tarzda ko'chirilgan:

قاي پرى پيكرگا ديرسين تيلبا بولدونگ بو صفت
اي پرى پيكر ني قيلسنگ قيل فدا بولدوم سنگا.

№6, №229-devonlarda esa:

قاي پرى پيكرگا ديرسين تيلبا بولدونگ بو صفت
اي پرى پيكر ني قيلسنگ قيل منگا بولدوم سنگا.

baytining matni Navoiy kulliyoti (№808) bilan bir xil. Ammo №216 qo'lyozmada biroz farqlanish bor. Mazkur nusxada poetik mazmun mukammalligiga putur yetgan:

قای پری پیکرگا دیرسین نیلبا بولدونگ بو صفت
ای پری پیکر نی قیلسنگ قیل سنگا بولدوم سنگا.

Shu bois "Badoye' ul-bidoya"ning kirill alifbosidagi nashrida ham ayni jumla takrorlangan:

Qay pari paykarga dersen telba bo'ldung bu sifat,

Ey pari paykar, ne qilsang qil, sanga bo'ldum, sanga. [Навоий, 1987:48]

Albatta, qo'lyozma har qancha noyob nusxa bo'lmasin, kotib yo'l qo'yadigan xatoliklardan holi bo'lishi mushkul. Bu holatda esa matnning muallif varianti mantiq asosida tiklanishi lozim bo'ladi.

№872, №306, №771, №912, №944, №22, №19, №18, №219, №220-devonlardagi baytning mazmuni mantiqqa zid emas: Unga ko'ra, qaysi pari paykarga bunchalik telbalarcha oshiq bo'lding, deb so'raysan, ey pari paykarim, ne jabr-u jafo qilsang ham, senga fido bo'laman, deyilmoqda. Biroq bundan avvalgi – uchinchi baytda ham "fido bo'ldum sanga" birikmasi kelgan. Ketma-ket ayni jumladan foydalanib, bir xil ma'no ifodalash esa Navoiy uslubiga xos emas. №6 va №229-devonlardagi matnni esa muallif variantiga muvofiq deyish mumkin. G'azalning maqtasida yana ikki farqlanish bor. E'tiborli jihati, boshqa o'zgarishlar faqat u yoki bu devonda kuzatilsa, bu holat barcha toshbosma nusxalarda uchraydi:

غصه چنگیدین نوایی تابمدی عشاق ارا
تا نوایدیک اسیر و مبتلا بولدوم سنگا.

Yettinchi baytning matni №216 va №808 qo'lyozma nusxalarda quyidagicha:

غصه چنگیدین نوایی تایمدیم عشاق ارا
تا نوایدیک اسیر و بی نوا بولدوم سنگا.

Kotibning birinchi misradagi تابمدی so'zini تابمدی shaklida ko'chirishiga o'zidan oldin kelgan نوایی ning taxallus deb o'ylagani natijasida sodir bo'lgan. Chunki taxallusli baytlar kesimi, odatda, uchinchi shaxs birlikda keladi. Ammo shoir har ikki misrada o'zakdosh so'zdan foydalanib, taxallusni ikkinchi misrada qo'llagan. Shu o'rinda XIX asrga oid №9746 hamda №1715 qo'lyozmalarga murojaat qilinganda boshqa bir vaziyat ko'zga tashlanadi. Bunda ayni shu so'z تایمیشام tarzida keladi. Navoiy hayotlik davrida ko'chirilgan biror qo'lyozmada g'azalning shunday so'z bilan ifodalanganini uchratmadik. Garchi shoir she'rlarining: "Bir kichik yoshlig' nigore topmisham nozukkina", "Ko'rmisham vojib baqosin ravshan andoqkim quyosh" misralaridan ko'rinadiki, fe'lining bunday shakli mavjud bo'lgan. [Алишер Навоий, 2012:20]

Ushbu baytdagi "g'ussa changidin..." birikmasining №10293 toshbosmada غصه asirlik bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Zero, muftalo so'zi "giriftor, duchor bo'lgan, ilingan, tutilgan; baxtsizlikka uchragan, baloga yo'liqqan; oshiq, aftoda" degan ma'nolarni bildirib, asir so'zini to'ldirib keladi. [Навоий асарлари луғати, 1972:403]

Matla va ikkinchi baytdagi مبتلا بولدوم سنگا jumalari takrorlanib radd ul-qofiyani hosil qilgan bo'lsa, she'r oxirida بی نوا so'zi o'rniga مبتلا ishlatilishi o'zidan oldingi اسیر asirlik bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Zero, muftalo so'zi "giriftor, duchor bo'lgan, ilingan, tutilgan; baxtsizlikka uchragan, baloga yo'liqqan; oshiq, aftoda" degan ma'nolarni bildirib, asir so'zini to'ldirib keladi. [Навоий асарлари луғати, 1972:403]

Ammo baribir badiiyatga zarar yetib, misra ritmi buzilgan. Chunki "navo", "Navoiy", "benavo" o'zakdosh so'zlari esa ishtiyoq san'atining go'zal namunasi yuzaga keltirgan.

Mazkur maqta bayt sabab-oqibat munosabatiga qurilgan. Faqat dastlab oqibat, so'ng sabab ko'rsatiladi – oshiqlar orasida g'am cholg'usining ohangini topmadim, sababi esa ma'shuqaga Navoiydek asir va g'arib bo'lmagani edi. Adabiyotshunos N.Komilov yuqoridagi misralarni shunday bayon qiladi: "Navoiydek sen mahbubaga asir-u benavo bo'lmaguncha oshiqlar orasida ishq alami kuyini eshitmadim".[Комилов Н., 2018:53]

Shunday qilib, yuqoridagi har ikki holatni biz kotib tahriri deyishimiz mumkin. Lekin bu tahrir toshbosmalarga yaqin davrda ko'chirilgan qo'lyozmalarda uchramadi. Xususan, DAM fondida saqlanayotgan (№25, 7-sahifa) 1245 (1829-1830)-yilda "Mahbub ul-qulub" bilan birga kitobat qilingan terma devonda ham بی نوا va تایمیدیم so'zlari aslidek ko'chirilgan.[Navoiy devoni. №25] Shunga ko'ra, farqlanishlar faqat toshbosmalarga xos, ularni yuzaga keltirgan sabab esa kotiblarning matnga erkin munosabatda bo'lganligini bildiradi.

Kuzatishimizcha, XX asr terma devonlari tarkibidagi she'rlarning ko'pi "Badoye'-ul-vasat"dan olingan. Ayni devondan tanlangan ishqiy mavzudagi "manga" radifli g'azal ham №229, №944, №220, №219-toshbosmalarda ayrim matniy o'zgarishlarga uchragan. Jumladan, she'rning 4-baytida kotibning tahriri bilan quyidagi farqlanish yuzaga kelgan:

مضطرب مین چرخ ینگلیغکیم نجوم تیره دین
تندا هر دم یوز تومن داغ نهانی دور منگا.

Mazkur bayt №216 va №808 qo'lyozma nusxalarda bu tarzda berilgan:

مضطرب مین چرخ ینگلیغکیم نجوم تیره دین
تندا هر کون یوز تومن داغ نهانی دور منگا.

Ko'rinib turibdiki, کون so'zi bilan almashtirilgan. Ularning misradagi ma'nosini ko'rib chiqish orqali o'zgarish sabablarini izohlash mumkin bo'ladi. G'azal oshiqning ma'shuqasi jabr-u zulmidan ozorlanishlari bilan boshlanib, baytdan-baytga tadrijiy ravishda rivojlantirib boriladi. 4-baytda lirik qahramon iztirobda qolganini osmonning xira yulduzli holatiga o'xshatib, har on tanasini hisobsiz yashirin alam o'rtaganini izhor qiladi. Demak, bu yerda کون so'zi "vaqt, fursat, on, zamona" ma'nosida kelmoqda.[Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати, 1983:138] Ammo XX asr adabiy tilida "kun" so'zi bu ma'noda faol ishlatilmagan. Shunga ko'ra kotib uning sinonimini qo'llashni ma'qul ko'rgan. Garchi ma'noga jiddiy ta'sir ko'rsatmagan bo'lsa-da, mumtoz matnlarning asl holati saqlanib qolishi maqbul bo'lar edi. Bu haqida matnshunos O.Jo'raboyev shunday deydi: "Asl navoiyona matn olis o'tmishda qolib, ko'chirilayotgan zamonning kitobxoni anglaydigan matnni taqdim etishga urinish yuzaga kela boshladi". [Jo'raboyev O. 2023:9] Zotan, Navoiy devonlarining ikkinchi yo uchinchi shaxslar tomonidan tahrir qilinishi matnning asliyatdan uzoqlashishiga sabab bo'lgan.

Ushbu g'azalning №872, №306, №229, №944, №912, №248, №220, №219 nusxalardagi 6-, 7-baytlarida esa tayanilgan manbadan xato o'qilishi va ko'chirilishi oqibatida mazmunga putur yetgan:

ایکی دیرسین عشق ارا اولمک زیاندور عمر سود
هر نی سودیدور سینگا انیکیم زیانی دور منگا.
کورمیشم واجیب بقاسین روشن انداکیم قویاش
تاکی امکان سایه ینگلیغ کوزدا قانیدور منگا.

Baytlarning №216 devon va №808 kulliyotdagi ko'rinishi esa quyidagicha:

ایکی دیرسین عشق ارا اولمک زیاندور عمر سود

هر نى سوديدور سينگا نيكييم زياني دور منگا.
كورميشم واجيب بقاسين روشن انداكييم قوياش
تاكي امكان سايه ينگليغ كوزدا فانيدور منگا.

Misralardagi farqlanishlarni bir harf orttirilishi hamda diakretik belgilarning noto'g'ri ko'chirilishi yuzaga keltirgan. Bir qaraganda, anikiim va niikiim so'zlari farqlanmaydigandek ko'rinib-ula ularning ma'nosi bayt, hatto butun g'azal mazmuniga ta'sir o'tkaza oladi. Bunda ma'shuqa o'z oshig'iga ishq aro o'lmoqdan hayot afzalligini aytadi. Yori esa unga har yaxshilik senga-yu, nimaiki yomonlik bo'lsa, menga bo'laversin deya jo'mardlik qiladi. Ammo ikkinchi misraga anikiim so'zi qo'yilsa, har yaxshi narsa senga-yu, undan keladigan yomonlik menga, degan g'azal mazmuniga zid qarash paydo bo'ladi. Zero, sevgilisini hayoti jovidoni deb bilgan oshiq ishqdan keladigan telbalik va oshiqlik savdolariga rozi, hatto joniga qasd qilsa-da, uni tabibi hisoblasa-yu, unga xayrli bo'lgan narsani o'ziga ziyon deb bilishi ma'no tadrijiyligini buzib yuboradi.

Keyingi baytdagi faniidur so'zining qaniidur tarzda ko'chirilishi ham gap mazmunini xiralashtirgan. Chunki o'zidan avvalgi misrada "baqosin" ishlatilmoqda. fani "yo'q bo'luvchi, yo'qoluvchi, bituvchi", qanc esa "qanoat qiluvchi, rozi bo'luvchi" degan ma'nolarni bildiradi.[Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати, 1983:64] Odatda, mumtoz adabiyotda fano va baqo tushunchalari yonma-yon kelib tazod san'atini hosil qiladi. Ushbu qismda ham quyoshning yorug'ligi abadiy bajarilib turadigan harakat sifatida yorga yetishish imkonini xuddi soyaning ko'zdan yo'q bo'lib qolishiga o'xshashi bilan zid keltirilgan. Zero, soyaga o'xshatilgan imkonning ko'zni qoniqtirishidan ko'ra uning tez fursatda yo'q bo'lishiga ishonish mantiqan to'g'ri bo'ladi.

G'azalning 4-, 5-bayti №872, №306 hamda №248 devonlardan tushirib qoldirilgan. Bu tahrirning sababi esa kotiblarning devondagi g'azallarining 7 baytliga aylantirib, bir xillashtirishni maqsad qilishgani bo'lgan. Zero, bu holat yuqorida keltirilgan nusxalarga kirgan boshqa g'azallarda ham uchraydi.

Toshbosma devonlardagi barcha matniy tafovutlar faqat kotib tahriri yoki xatosi bilan sodir bo'lmagan. Bunda xattot tanlagan asl manbaning keyingi qo'lyozmalar bilan farqlanishida ham aks etgan. Jumladan, №216-qo'lyozma devondagi kabi №872, №306, №6, №248, №229, №944, №912, №22, №18, №19, №220 toshbosmalarning quyidagi matla bilan boshlanuvchi hamd g'azali ham ana shu shaklda kelgan:

ای مصحف رخسارینگ ازل خطیدین انشا
دیباچه حسنونگغا ابد نقطه سی طغرا.

Uning №808 qo'lyozmadagi matni esa:

ای صفحه رخسارینگ ازل خطیدین انشا
دیباچه حسنونگغا ابد نقطه سی طغرا.

tarzida tahrir qilingan. Bu haqida navoiyshunos D.Salohiy shunday mulohaza qiladi: "Bu yerda mus'haf – to'liq bir kitob ma'nosidagi so'zdan ko'ra, o'sha tabarruk kitobning bir sahifasi mazmunidagi "sahfayi" degan tahrirning insho etilishi har tomonlama ma'quldir. Bundan tashqari, "ruxsoring kitobi" degandan ko'ra "ruxsoring sahifasi" iborasi ancha aniq. Ochiq turgan kitobning ikki sahifasini inson chehrasiga, ikki yuzga qiyos qilsa bo'ladi".[Салоҳий Д,2004:41] Demak, bu farqlanishga kotib yoki davrning mumtoz matn tilini soddalashtirish masalasi ta'sir etmagan. Ammo keyingi misralardagi tafovutlar xattotning bevosita aralashuvi bilan sodir bo'lgan deyish mumkin.

3-, 4-baytlar:

مشاطه صنعنگدورور اولکیم نفس ایچرا
کوک کوزگوسین اقشام کولیدین قیلدی مجلا.
نون شکلی یوزونگ کوزگوسیدین بولدی مشگل.
تون طوره سی مهرینگ یلیدین بولدی مطرا.

№216 hamda №808-qo'lyozmalardagi matni:

مشاطه صنعنگدورور اولکیم نفس ایچرا
کون کوزگوسین اقشام کولیدین قیلدی مجلا.
کون شکلی یوزونگ سجده سیدین بولدی مشگل
تون طوره سی قهرینگ یلیدین بولدی مطرا.

Ko'rinib turibdiki, XX asr kotiblari ikki baytning o'zida to'rt so'zga o'zgartirish kiritishgan. Ularning uchasi – کون – کوک – کون, قهرینگ, نون – کون, کوک – کون, نون – کون arab yozuvida shaklan bir-biriga o'xshash va ba'zi badxat ko'chirilgan devonlarda ularning aniq shakli anglashilmaydi. Qolaversa, ba'zi jummalarda o'zini oqlagandek taassurot uyg'otadi. Masalan, XX asr kishisiga "kun shakli" emas, "nun shakli" ko'proq aniq tushuncha anglatadigandek tuyiladi.

Navoiyning eng mashhur g'azallaridan hisoblangan ushbu asarning Allohga hamd mavzusida ekanligini yuqorida ta'kidladik. Biroq toshbosmadagi matn o'zgarishlari mavzuning umumiy tavsifiga parda tortgan ko'rinadi. Baytlarning nasriy bayoni bunday:

Sening pardozlash, bezatish qudrating bir nafasda kunduzning oynasini tun kuli bilan yaltiratib tozalaydi. Kun, ya'ni quyosh Senga sajda qilib, shaklga kiradi, tunning zulfi esa qahrining shamolidan tozalanadi.

Toshbosma devondagi "ko'k ko'zgusi" birikmasi esa osmonni tun kuli jilolantirgani haqida tasavvur berib, Ollohning kun va tunni yaratganiga qilingan ishorani anglatolmaydi. "Nun shakli" jumlasini "quyoshning shakli" ma'nosini bermaydi. Zero, quyoshning shaklini faqat botayotgan (sajdaga bosh qo'yayotgan) paytidagina ko'rish mumkin. 4-baytdagi سجده سیدین so'zining o'rniga کوزگوسیدین xato qo'llanganini ham yuqoridagi mazmunga zid kelishidan bilish mumkin.

"Qahrining" o'rniga "mehrining" so'zi almashishi ham bejiz emasdek. Ularning o'rtasida mantiqiy bog'lanish bor. Ushbu baytni N.Komilov shunday sharhlaydi: "...Parvardigor o'zaro zidlikni bir-biriga bog'liq qilib yaratgan. Bu ilohiy hikmat: tunsiz kun, kunduzsiz tun chiroyli emas va butun bo'lmaydi. Kunduz (quyoshning) munavvar shakli. Kunni Xudoning mehriga, tunni uning qahriga o'xshatganda ham, shu hikmat nazarda tutilgan".[Комилов Н.2018:20] Yuqoridagi toshbosma matnida esa buning aksi – tun yaratganning mehri sifatida gavalantirilgan.

№872, №306, №19, №771, №237, №248-devonlarda quyidagi matla bilan boshlanuvchi g'azalda ham qo'lyozmalar o'rtasidagi farqlar aks etgan:

هوا خوش ایردی وایلیکیمدا بر قدح می ناب
اچار ایردیم ولی غمدین قدح قدح خونا.

G'azalning №808 kulliyotdagi matnida esa:

هوا خوش ایردی واللیکیمدا بر قدح می ناب
اچار ایردیم ولی غمدین قدح قدح خونا.

tarzida kelgan. Dastlab, "Badoye'-ul-bidoya" №216 matnida ایلیکیمدا ishlatilgan bo'lsa, "G'aroyib-us-sig'ar"ga اللیکیمدا shaklida tahrirlab kiritilgan. Demak, toshbosmalarga dastlabki qo'lyozmalar asos qilib olingan deb xulosa qilish mumkin. Ikkinchi tomondan, xush havo chog'ida qadahdagi mayning lirik qahramon oldida bo'lishidan

ko'ra qo'lida turishi haqiqatga yaqinroq bo'ladi, chunki ikkinchi misrada uning g'am bilan to'la qadahni ichganiga ishora bor.

Mazkur g'azalning 7-bayti esa quyidagicha berilgan:

چو ساقى ايتى قدح كوزگوسيدا جلوه حسن
نى عيب عاشق بيچاره كونگلى بولسا كباب.

Navoiy hayotlik davrida ko'chirilgan №216 devon va №808 kulliyotda:

چو ساقى ايتى قدح كوزگوسيدا جلوه حسن
نى عيب عاشق ميخواره كونگلى بولسا پياب.

shaklida kelgan. Har ikki so'zning baytga muvofiqligini bilish uchun uning mazmun-ma'nosiga qarash joiz. She'rning boshdan-oxiri bir voqea tizginiga qurilganligi uning voqeaband g'azal ekanligini ko'rsatib turibdi. Ya'ni xush havo kunlarining birida oshiq ma'shuqasini uchratib qoladi. Tabiiyki, uning qo'lida ishq mayi to'latilgan qadah bor edi. Yorini ko'rgan oshiq u bilan may ichishni taklif qiladi. Ne g'ussa-yu betoqatliklardan so'ng nihoyat sarvqomat lutf qilib maydan tatib ko'radi-yu, yuz nayrang bilan darhol qaytarib beradi. Shu yerga kelganda yuqoridagi bayt mazmuniga e'tiborni qaratamiz: Ma'lumki, tiniq may xuddi suv kabi ko'zgu vazifasini bajarishi mumkin. Soqiy (sevgili) qadahni ichib, uzatarkan, aksi mayda muhrlanib qoladi. Mayxo'r mahbub esa qadah ko'zgusida jilvalangan husnni ko'rib, ko'ngli battar xarob bo'ladi. Yorning aksini qadahda ko'rish an'anasi "G'aroyib-us-sigar"ning dastlabki g'azalidayoq ko'zga tashlanadi: "... Yor aksin mayda ko'r deb jomdin chiqti sado".[Alisher Navoiy, 2011:20] Baytdagi "yabob" so'zi esa "xarob, kambag'al, qashshoq" ma'nolarini anglatadi.[Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати, 1983:587] Toshbosmadagi farqli misra mazmuniga ko'ra esa bunday: ne aybki, bechora oshiq ko'ngli bundan kabob (kuyib) bo'ldi. Ko'rinib turibdiki, bosma nashrdagi mazmun ham asliyatdan jiddiy farq qilmaydi, ammo oshiq, ma'shuq va may uchligi asosiga qurilgan g'azal kompozitsiyasida "mayxora" va "yabob" so'zlari yaqinroq va aniq ma'no ifodalashga xizmat qiladi.

Matnlar tahlili ayrim farqlanishlar hatto qo'lyozmalarda ham turlicha ekanligini ko'rsatsa, ayrimlari kotibning mumtoz matnni yaxshi anglamasligidan, ba'zisi yagona imlo qoidasi mavjud emasligidan bo'lsa, boshqalari davr tiliga moslashtirib, soddalashtirish oqibatida yuzaga kelganiga guvohlik beradi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Лихачев Д.С. Текстология (Краткий очерк.) – Москва: Наука.1964. – С.61.
2. Алишер Навоий. Бадоеъ ул-бидоя. МАТ. 20 томлик. II жилд. – Тошкент: Фан. 1987. – Б. 48.
3. Алишер Навоий. Бадоеъ-ул-васат. ТАТ. III жилд. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижод уйи. 2012. – Б. 20.
4. Alisher Navoiy. G'aroyib-us-sig'ar. TAT. I jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijod uyi. 2011. – B. 20.
5. Навоий асарлари луғати. Тузувчилар: Шамсиев П. Иброҳимов С. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – Б.403.
6. Комилов Н. Мубтало бўлдум санго // Навоий ғазалиёти талқинлари. – Тошкент: Ўзбекистон. 2018. – Б. 53.
7. Navoiy devoni. №25 qo'lyozma. O'zR FA DAM fondi.
8. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. IV жилдлик. Т.2. – Тошкент: Фан. 1983. – Б.138.
9. Jo'raboyev O. Alisher Navoiy devoni qo'lyozmalaridagi bir matn tahriri xususida // Adabiy meros, №3-4. – Toshkent. 2023. – B. 9.
10. Салоҳий Д. "Бадоеъ-ул-бидоя" малоҳати. – Тошкент: Фан. 2004. – Б. 41.

FÂNÎ DİVANINDAKİ AVNÎ DİVANINDAN TERCÜME OLUNMUŞ ŞİİRLER ÜZERİNE

Erfan ESHGHINOUR

Urmia University Hukuk Öğrencisi

Eshghinourerfan@gmail.com

10.52773/tsuull.conf.navoiy.2025/IOF01285

Özet: Bu çalışma, Avnî ve Fânî divanlarında yer alan, biri Türkçe diğeri ise Farsça olan, ancak kesin olarak birinin diğerinden tercüme edildiği anlaşılan 7 şiirin tanıtılmasına odaklanmaktadır. Çalışmanın amacı, bu şiirlerin hangisinin hangisinden çevrildiğini ayırt etmek olup, bu hedef doğrultusunda önce Avnî ve Fânî'nin yaratıcılığına kısaca bir bakış yapılmış, ardından doğrudan söz konusu şiirlerin incelemesine geçilmiştir. Elde edilen kaynaklar ve veriler doğrultusunda, bu şiirlerin asıllarının Fatih Sultan Mehmed'e ait olduğu ve Fânî divanındaki şiirlerin tercüme olduğu tespit edilmiştir. bu konu Nevâî'yi tesiri altına alan kimselerin sayısının artması, türkçe'nin batı-doğu ilişkileri ve daha başka bakımlardan son derece önemlidir.

Anahtar kelimeler :Sultan II. Mehmed, Ali Şir Nevâî, Fânî, Avnî. Farsça, Türkçe, Gazel.

Giriş:

-Sultan İkinci Mehmed 15. Yüzyılın ikinci çeyreğinde doğmuş ve keskin kılıcı ve üstün zekasıyla çağ açıp çağ kapatan kimselerden olmuştur, onun hayatı yeterli derecede tanındığı için biz o konuyu araştırmaktan vaz geçerek onun kaleminden hasıl olanları ve dahi yaradıcılığını göz önüne alıyoruz:

Nesir eseri:

Fatih'in bosna ruhbanlarına verdiği ahitname onun kaleminden hasıl olmuş tek nesir eseridir. Bu eser, Fatih'in yazı üslubunun aydınlatılması ve onun elyazısının bilinmesi gibi birçok açıdan önemlidir(Karacakaya Ve Yücedağ 2019,148-149)

Nazm eserleri:

Fatih'in nazm eserleri onun kendi anadili olan türkçe kaleme aldığı şiirleri ile sınırlıdır. Avnî mahlasıyla yazılan bu şiirlerin Fatih hayattayken kendisi tarafından mı yoksa sonralar başkaları tarafından mı tertip edildiği belli değildir. elimizde Avnî divanından 4 elyazma nüsha vardır, ayrıca Dağınık mecmualarda da divan nüshalarında bulunmayan bazı şiirler de vardır.

Divan nüshaları ve mecmualarda mevcut olan verilere bakıldığında Fatih'in askeri ve devlet işleriyle yoğun uğraşlarına rağmen onun edebi yaşamla da irtibat kurduğu aydınlaşmaktadır. Mesela divan nüshalarında onun bir mısra'na yazmış yaklaşık 30 tekmele görünmektedir, ayrıca mecmualardaki verilerde Fatih'in kendisinin de bazı şairlere yazdığı nazireler mevcuttur, nihayetle Fâtih Dîvân'ı yetmiş dört gazel, bir muhammes, iki kıt'a, bir murabba, on bir beyit ve bir mısra'dan oluşmaktadır.

-Ali Şir Nevâî ise tarihin en başarılı şairlerindendir. Onun hayatı ve eserleri konusunda çok sayıda araştırmalar yapılmıştır. O nedenle de biz direkt onun Fânî mahlasıyla yazdığı farsça divanının incelemesine geçmeği tercih ediyoruz.

Fânî divanından elimizde 10 nüsha vardır(Razmi 2023: s37)³⁹.bu divan İran'da türkiye'de ve özbekistan'da neşr edilmiştir.

³⁹ Adı geçen kitapta aslında 11 yazma eser tanıtılmaktadır. Ancak 2 ve 4 numaralı nüshalar aslında tek ve aynı nüshadır ve eskiden Türk İslam eserleri Müzesi'nde, şimdi ise Galata mevlavihanesi'nde saklanmaktadır; Mezkur kitaptaki yanlış da işte buradan kaynaklanıyor.

MUNDARIJA CONTENTS	
Shuhrat SIROJIDDINOV. Turkiy dunyo hamkorligining mustahkam asosi Туркі әлем ынтымақтастығының мықты негізі	7
Қанат БАЙБОЛОВ. Екі халық арасындағы бауырлық пен достық рәмізі Ikki xalq qardoshligi va do'stligi simvoli	11
I SHO'BA. ALISHER NAVOIY ADABIY MEROSINING JAHON TAMADDUNIDA TUTGAN O'RNI SECTION I. THE PLACE OF ALISHER NAVAII'S LITERARY HERITAGE IN WORLD CIVILIZATION	
Boqijon TO'XLIYEV. Nasimiy va Navoiy nazmi – badiiy tafakkurning yangi bazmi	15
Islam JEMENEY. Әлішер Навои	23
Yashar QOSIM. Dohiy Alisher Navoiyning ulug' izdoshi (Muhammad Fuzuliy sheiriyatida poetik in'ikos tarzining o'ziga xosligi)	35
Qodirjon ERGASHEV. Renessans adabiyotida etologik janr taraqqiyoti	42
Əlimuxtar MUXTAROV. Nizami Gencevi ve Alishir Navai'nin tür ruhu eserlerinin ve araştırmacılarının gözü ile	47
Roviyajon ABDULLAYEVA. Alisher Navoiy fenomeni yoxud Navoiy ijodining olamshumul ahamiyati	52
Насриддин НАЗАРОВ. Гуманизм и креативность в творчестве Наваи как фактор обеспечения связей между народами Евразии	60
Burobiya RAJABOVA. O'zbek navoiyshunoslari Jomiy haqida	67
Karomat MULLAXO'JAYEVA. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy g'azallarida Yusuf (a. s.) siymosining badiiy talqinlari	77
Tozagul MATYOQUBOVA. Sharq adabiyotining yetuk tadqiqotchisi	82
Nosir JO'RABOYEV. Ikki turkman hukmdori ijodi va Alisher Navoiy	87
Молдасанов Е.М., АБДУВАЛИТОВ Н.Б. Әлем әдебиетінің асқар шыңы (Әлішер Науаидың 584 жылдығына орай)	95
Hulkar HAMROYEVA. Alisher Navoiy ijodida san'at talqini	99
Злиха ЖАНТАСОВА. Шығыс әдебиетінің қазақ фольклорындағы көрінісі	103
Sherxon QORAYEV. Alisher Navoiy Badaxshon shohi va shoir Sulton Muhammad La'liy ijodi tadqiqotchisi (Navoiy va uning zamondoshlari tazkiralari ma'lumotlari asosida)	109
Ahmad AKHLAQUE, Asror Allayarov. Alisher Navoi's creative works: a scientific exploration	115

Fayzulla ISKANDAROV, Dostonjon Tojiev. “Alisher Navoi international award”: establishment and historical significance for the turkic world	118
Diyora ABDUJALILOVA. Alisher Navoiy va Yahyobey Toshlijali dostonlarida shayx va avliyolar timsoli	124
Orifjon OLIMJANOV. Alisher Navoiy va Lorendeli Hamdiy “Layli va Majnun” dostonlari kompozitsiyasiga doir	131
II SHO‘BA. NAVOIY NAZMIY, NASRIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI SECTION II. ISSUES OF STUDYING NAVAIY'S POETRY, PROSE AND SCIENTIFIC HERITAGE	
Nurboy JABBOROV. Alisher Navoiy “Tarixi anbiyo va hukamo” asarining siyarnoma turkumida tutgan o‘rni	136
Nusratullo JUMAXO‘JA. Navoiyning yigitlik lirikasiga mansub mustazodi	149
Maqsud ASADOV. Alisher Navoiy “Tanbeh”larining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari (“Mahbub ul-qulub” asari misolida)	155
Dr. Kemal Yavuz ATAMAN. Ali Şir Nevaî beyitlerinde kulluk şuuru	160
Zuhridin ISOMIDDINOV. Navoiyning “qaychi” g‘azali	165
Baxtiyor FAYZULLOYEV. Qo‘qon adabiy muhitida Navoiyga izdoshlik	170
Iqboloy ADIZOVA. Adabiy ta’sir va poetik tafakkurning yangilanishi	177
Nafas SHODMONOV, G‘iyosiddin SHODMONOV. Olti dostonida Odam Ato timsoli talqini	185
Faridaxon KARIMOVA. Xorazm adabiy muhitida debochanavislik an’analari	193
Islomjon YAQUBOV. O‘zaro ta’sir, ijodiy mushtaraklik va o‘ziga xoslik	200
Shavkat HAYITOV, Gulshod SHOYIMOVA. Alisher Navoiyning nabotot va hayvonot olamiga munosabati	205
Obidjon KARIMOV. Alisher Navoiy irfoniy olamining yangicha talqini	212
Gulbahor ASHUROVA. O‘zbek ayol shoiralari ijodida Alisher Navoiy obrazi tasvirlari	216
Qo‘ldosh PARDAYEV. Navoiy g‘azallariga Muqimiyning nazira va taxmislari	221
Ilyos ISMOILOV. Abror hayrati	226
Shermuhammad AMONOV, Abdulhaq RAHIMI. Alisher Navoiy mustazodiga bog‘langan muxammas haqida	229
Zilola AMONOVA, Shahlola SAFAROVA. “Farhod va Shirin” dostonidagi na’t boblarning manbalari va badiiyati	235
Abdulhamid QURBONOV. Badiiy matn va tasviriy vositalar mutanosibligi	242
Muqaddas TOJIBOYEVA. Abdulla Qodiriy romanlarida Alisher Navoiyga izdoshlik masalalari xususida	248
Orzigul HAMROYEVA. Radifning bayt kompozitsiyasidagi o‘rni	252

Ma'rifat RAJABOVA. Xalq maydon kulgi san'ati belgilarining Navoiy ijodidagi ko'rinishlari	256
Nodira SOATOVA. "Farhod va Shirin" dostoni – an'ana takomili, taraqqiysi hamda sintezi sifatida	260
Umida RASULOVA. "Alisher Navoiy" romanida obraz poetikasi	266
Marg'uba ABDULLAYEVA. Yetti sayyora: badiiy talqin va ilmiy dunyoqarash	269
Sohiba UMAROVA. Suyuma G'aniyeva – navoiyshunos	273
Zuhra MAMADALIYEVA. Alisher Navoiy "Xamsa"sida mirrix obrazining majozilik xususiyatlari	277
Aziz RAJABIY. Alisher Navoiy g'azallarining ohang jilolari (Yunus Rajabiy musiqiy merosi misolida)	282
Zarif QUVONOV. "Hayrat ul-abror"ning yangi tadqiqatlari xususida	286
Farruxbek ABDALIYEV, Gulnoza OSMANOVA. "Xamsa"da "kampir" obrazi talqini	290
Nafisa RAXMANOVA. Ramziy-majoziy obrazlar ta'vili haqida mulohazalar	293
Kamola ULUG'MURODOVA. Navoiy nazmida Layli obrazining badiiy talqini	299
Mavluda ORTIQOVA. Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asarida valiylarga xos sifatlar talqini	303
Jamila EISAR. Alisher Navoiyning she'riyatida oyina timsolining talqini ("G'aroyib us-sig'ar misolida")	308
Azizbek TOSHPO'LATOV. Alisher Navoiyga izdoshlik: Ahmad Tabibiy taxmislari	313
Sevara PARMONOVA. Tasavvufiy tazkiralari va Alisher Navoiy asarlarida Ibrohim Adham nomining zikr etilishi	318
III SHO'BA. ALISHER NAVOIY ASARLARINING MANBALARI VA MATNIY TADQIQI SECTION III. SOURCES AND TEXTUAL RESEARCH OF ALISHER NAVAI'S WORKS	
Dilnavoz YUSUPOVA, Umedullo MAHMUDOV. Alisher Navoiyning "Munshaoti Abdulloh Marvorid"dan o'rin olgan forsiy maktublari xususida	323
Manzar ABDULXAYROV. Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni tabdillari tahlili	330
Dr. Farhad RAHIMI. Senglah Sözlüğünün Feraği Düzeltmeleri ve Feraği'den Yanlış ktarmaları Üzerine	335
Gholamreza RAZMI. Özbekistan'da yayimlanmış iki Hayretü'l-ebrar'in tashih edilmiş metnindeki hataların sebeplerine bir bakış	352
Altay NOORULLAH. Navoiy asarlarida tinish belgilarining yanglish ishlatilishi	365

Sevda BEHESHTI. Navai's Poetry as Reflected in Miniature Paintings (A study of Illustrated manuscripts preserved in Iranian collections)	376
Oysara MADALIYEVA. Alisher Navoiyning dastlabki ikki devoni Hamid Sulaymon nigohida	384
Dr. Siyamek HÜSSEYINALIZADE (Ergin Avşar). Amîr Alî Şîr Nevaî'nin şiirlerinde Şamanlığa aid Terimler ve ritüeller	395
Ozoda TOJIBOYEVA. Parij kulliyotidagi "Favoyid ul-kibar"ning matniy xususiyatlari	407
Husnigul JO'RAYEVA. Husayn Boyqaro – Husayniy adabiy merosining O'zbekistonda o'rganilishi	412
Dilnoza RUSTAMOVA. Alisher Navoiy toshbosma devonlaridagi ayrim g'azallar matnining qo'lyozma nusxalar bilan qiyosi	417
Erfan ESHGHÎNOUR. Fâni Divanındaki Avnî Divanından Tercüme Olunmuş Şiirler Üzerine	423
Lochinbek AHMADALIYEV. Po'latjon Qayyumiy tazkiralarda Alisher Navoiy faoliyatining yoritilishi	433
Dilnavoz SATTOROVA. Navoiy g'azallariga Sa'diy taxmislari	438
IV SHO'BA. ALISHER NAVOIY ASARLARINING XORIJIY TILLARGA TARJIMASI VA CHET ELLARDA O'RGANILISHI SECTION IV. TRANSLATION OF ALISHER NAVA'I'S WORKS INTO FOREIGN LANGUAGES AND STUDY ABROAD	
Hulkar HAMROYEVA, Shahlo NARALIYEVA, Ozodaxon MUSAYEVA. Qozog'istonda Mir Alisher Navoiy ijodining o'rganilishi	444
Abdulhay SOBIROV, Zamira DJURABAYEVA. "Muhokamat ul- lug'atayn" – turkiy xalqlar leksikasining so'nmas bulog'i	451
Münevver TEKCAN, Serpil Yazıcı ŞAHİN. Muhakamat al-lughatayn's literary and academic aspects.	455
Бермет ЗАКИРОВА, Дамилова НУРИЙЛА. Алишер Навоинин чыгармаларындагы тилдик каражаттар аркылуу студенттин кеп маданиятын өстүрүү	462
Nishonboy XUSANOV. "Hayrat ul-abror"dagi teonimlarning semantik va badiiy xususiyatlari	468
Mardon RAHMATOV. Qo'shma fe'l komponentlari inversiyasi	472
Rashid ZOHID. Hayot – firoq manzili	478
Shahlo HOJIYEVA. Alisher Navoiy badiiy kashfiyotlari – Cho'lpon estetik tafakkuri yangilanishi omili	482
Mo'minjon SULAYMONOV. Alisher Navoiy davrida isiriq solinganmi?	488
Abdumurod TILAVOV. Alisher Navoiy ma'naviy merosi va zamonaviy ta'lim	492
Nilufar RASULOVA. Alisher Navoiyning boqiy merosi jahon tillarida	497
Ozodaxon MUSAYEVA, Gulchehra SULTONOVA. "Muhokamat ul- lug'atayn" asaridagi turkiy fe'llar va omonim so'zlar tahlili	502

Iroda ISHONXANOVA. Alisher Navoiy hayoti va ijodining “Литература” darsliklarida aks etishi	505
Shahlo NARALIYEVA, Farrux ABDALIYEV. Hazrat Navoiy ijodida nutq madaniyati	514
АШИРОВА Т.К., КАРАЕВА Н.О., ЗАКИРОВА Б.А. Алишер Навоинин чыгармаларын санарип платформалар аркылуу жайылтуу	518
Dilorom YULDASHEVA, Shahlo NARALIYEVA. Alisher Navoiyning didaktik qarashlari	523
Komiljon ABDULLAYEV. Ta’lim tizimi bosqichlarida Alisher Navoiy hayoti va ijodini o’rgatishda fanlararo integratsiyadan foydalanish	527
Gulnoza YULDASHEVA, Sevinch UBAYDULLAYEVA. “Lison ut-tayr” dostonining ayrim morfemik xususiyatlari tahlili	531
Feruza DJUMANIYAZOVA. Alisher Navoiy ijodida milliy etnosport o’yinlari	534
Hamida JURAQOBILOVA. O’zbek she’riy matnlaridagi kognitiv metaforalarning fransuz tilida ifodalanishi	539
Abdug’ani NASRIDDINOV. Navoiyshunoslikda yangicha yondashuv	544
TEZISLAR ADABIYOTSHUNOSLIK	
AHMADOVA Shohsanam. Hofiz Xorazmiy va Alisher Navoiy ijodida zohid obrazi tasviri	550
ABDURAIMOVA Xafiza. Alisher Navoiy g’azaliyotida Doro obrazi talqinlari	553
ALIYEVA Sevinch. Anbiyolar haqidagi manbalarda Iso payg’ambar obrazi tasviri	556
ALMARDONOVA Aziza. Alisher Navoiy tarji’bandlarida dunyo ramzi	561
DEHQONOV Akramjon. Bir g’azal sharhi	564
DOLIMOV Shokir. «Hayrat ul-abror» dostoni sharhining rus tiliga tarjimasi xususida	567
GAFUROVA Shaxnoza. Navoiy me’rojnoma baytlarida qo’llangan badiiy san’atlar	569
IBOTOVA Madina. Alisher Navoiy g’azallarida jon va ishq munosabatining badiiy ifodasi	572
MEYLIYEV Xudoyberdi. Navoiy va zamondoshlari asarlarida Mirzo Mironshoh saroyi adabiy muhiti va shoir Lutfulloh Nishopuriy ijodiy faoliyatining yoritilishi	576
MUQUMOVA Surayyo. “Nasoyim ul-muhabbat”: ism, xosiyat va xususiyat	579
NASRULLAYEV Elmurod, SIROJIDDINOVA Sevinch. Xalq og’zaki ijodida Navoiy timsoli talqini	581

NURULLAYEVA Hulkaroy, MAMADALIYEVA Madina. Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarini o‘qitish bo‘yicha ayrim mulohazalar	584
OLIMJONOV Davronbek. “Boburnoma” asarida tarixiy shaxslar tavsifi (Alisher Navoiy shaxsi misolida)	587
PARDAYEVA Nigora, PIRNAZAROVA Barno. Navoiy lirikasida kichik lirik janrlar	589
SHOMURODOV San‘at. Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlari isajon sulton talqinida	593
TO‘XTAMURATOV Furqat. Alisher Navoiy g‘azaliga Muhsiniy tatabbu’si	596
TURDIYEVA Maftuna. “Layli va Majnun” dostonlari kompozitsiyasidagi ba’zi farqli jihatlar	599
UMAROVA Dildor. Alisher Navoiy asarlarida sukut go‘zalligi ifodasi	602
UMAROV Sardorbek. Ma’rifatning haqiqati – hayratdir	604
YANGIBOYEV Shavkat. Ito haqida	607
TILSHUNOSLIK	
YULDASHEVA Dilorom. Alisher Navoiy asarlarida rang-tus ifodalovchi birliklar	611
AXMADJANOVA Malika. Alisher Navoiy va o‘zbek tilining boyitilishi: ilmiy metodlar va uslublar	613
AKBAROVA Zulfizargul. Alisher Navoiy asarlarida qo‘llanilgan antonimlik hosil qiluvchi “Ahl” komponentli lug‘aviy birliklar tahlili	617
YUSUPOVA Dildora. Alisher Navoiy asarlarida qimmatbaho tosh nomlari	619
MUNDARIJA	622